<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY-TA'LIMIIY QARASHLARI

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich

Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li

Turon universiteti Andijon filiali
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniyni ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari tahlil qilinadi. Uning pedagogik g'oyalari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqligi asoslab beriladi. Adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, o'quvchilarning qalbida axloqiy va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba sifatida baholanadi. Maqolada Avloniyni axloqiy-ta'limiy qarashlarining milliy maktab taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, axloq, nafs, maktab.

Abstract: This article analyzes Abdulla Avloni's views on education and upbringing. His pedagogical ideas are shown to be closely connected with the psyche, lifestyle, and national values of the Uzbek people. The writer's rich pedagogical heritage is evaluated as an important source for the development of educational processes and for fostering moral and spiritual qualities in students. The article highlights the significance of Avloni's moral and educational concepts in the advancement of the national education system.

Key words: education, upbringing, pedagogy, morality, self-awareness, school.

Аннотация: В статье анализируются взгляды Абдуллы Авлони на образование и воспитание. Показано, что его педагогические идеи тесно связаны с психологией, образом жизни и национальными ценностями узбекского народа. Богатое педагогическое наследие автора рассматривается как важный источник развития образовательного процесса и формирования у обучающихся нравственных и духовных качеств. В работе научно обосновывается значение морально-педагогических воззрений Авлони в развитии национальной системы образования.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагогика, нравственность, самосознание, школа.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda¹. Bizga ma'lumki, xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan buyuk alloma va adiblarimiz jadidchilik harakatining namoyandalari hisoblanadi². Jadidchilik (arab. jadid – yangi) turkiy mamlakatlar – Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston tarixiga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat sifatida kirib kelgan³. Shu davrning 90-yillarida esa ushbu harakat O'rta Osiyo mamlakatlariga keng tarqalgan⁴.

Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi dastlab madaniyat sohasidagi harakat tarzida namoyon bo'lib, ijtimoiy hayot taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, ushbu tillarda adabiyotni shakllantirish va boyitish, dunyoviy ilmlarni chuqurroq o'zlashtirish, fan yutuqlaridan foydalanish, shuningdek, ayollar va erkaklar tengligi muammolari uchun kurashishga da'vat etishdan iborat bo'lgan⁵.

Jadidlar o'z davrida yangi avlod ta'lim va tarbiyasi muammolari jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini, bu jarayon madaniyat, ma'rifat hamda ilm-fan rivoji bilan uzviy bog'liqligini har tomonlama teran anglaganlar⁶.

Ular shaxsiy manfaatlari va huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati hamda yurt taraqqiyotini ustuvor maqsad qilib qo'ygan holda amalga oshirgan ta'lim-tarbiyaviy ezgu ishlari bilan avlodlar xotirasida o'chmas

1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2 Qosimov B. Milliy uyg'onish va jadidchilik harakati. – Toshkent: Sharq, 2004.

3 Abdurashidov Z. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 1999.

4 Xolboyev A. O'rta Osiyoda jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

5 Qosimov B. Jadid adabiyoti va milliy tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2006.

6 Abdurashidov Z. Jadidchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari. – Toshkent: Fan, 1999.



iz qoldirganliklariga bugungi kunda guvoh bo'lib turibmiz. Turkiston ma'rifatparvarlari orasida ta'limshunos, pedagog va axloqshunos sifatida tanilgan Abdulla Avloniy (1887–1934)⁷ alohida o'rin egallaydi. Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913-yil) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai nazaridan yondashilgani hamda ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi⁸.

Asr boshlaridagi o'zbek jadid ma'rifatchiligidan noyob hodisalaridan bo'lgan ushbu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanib qolmagan. U adabiyot va axloq masalalariga qiziquvchilar uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilgan⁹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Avloniy merosini ilmiy jihatdan o'rganish o'zbek pedagogik tafakkuri va jadidchilik harakati bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Avloniy tomonidan yaratilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, ilm-ma'rifat va insoniy fazilatlarini shakllantirish masalalarini markazga qo'ygan muhim pedagogik manba sifatida baholanadi. Ushbu asarda axloq tarbiyasi ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash g'oyasi asoslab berilgan. Avloniy qarashlarida axloq, ilm va vijdon tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq holda yoritiladi.

Jadidchilik harakati va uning ma'rifiy mohiyati Qosimov, Abdurashidov hamda Xolboyev tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu olimlar jadid ma'rifatchilarining asosiy maqsadi jamiyatni ilm-fan orqali taraqqiy ettirish, milliy ongni yuksaltirish va ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishdan iborat bo'lganini ilmiy asosda tahlil qiladilar. Abdulla Avloniy ana shu harakatning yetuk namoyandasi sifatida axloqiy-ta'limiy g'oyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirgan pedagog sifatida e'tirof etiladi. Uning asarlarida tarbiya masalasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va milliy taraqqiyot omili sifatida talqin qilinadi.

O'zbek pedagogik tafakkuri tarixiga oid tadqiqotlarda Avloniyning pedagogik merosi alohida o'rin egallaydi. Yo'ldoshev tomonidan berilgan tahlillarda Avloniy asarlarining ta'limiy va axloqiy jihatdan qomusiy ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, mamlakatda ma'naviyat va tarbiya masalalariga doir davlat siyosatida ilgari surilgan g'oyalar Shavkat Mirziyoyev asarlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, bu jihatlar Avloniy qarashlari bilan mushtaraklik kasb etadi. Mazkur tadqiqotlar Abdulla Avloniy axloqiy-ta'limiy qarashlarining bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarbligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar Abdulla Avloniyning pedagogik va axloqiy merosiga oid asosiy manbalar, xususan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, jadidchilik harakati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hamda o'zbek pedagogik tafakkuri tarixiga bag'ishlangan monografiyalar asosida to'plandi. Shuningdek, rasmiy nashrlar va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar qiyosiy tahlil uchun foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tarixiy-tahliliy, mantiqiy va mazmuniy tahlil usullari orqali o'rganildi. Avloniy qarashlarining axloqiy-ta'limiy jihatlari jadidchilik g'oyalari bilan taqqoslanib, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va ilmiy xulosalash usullari yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abdulla Avloniy tarbiyani qadimgilar va O'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'anasiga suyanib uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg'u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi” tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarini faylasuf-pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an'anaviy bo'lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to'xtaladi. O'sha davrda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, Turkistonda milliy demokratik davlat qurish g'oyasi ilgari surilgan. Sharqona ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

Ma'naviyatni shakllantirishdagi muhim omil mamlakat yoshlarining ta'lim-tarbiya tizimi bo'lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk namoyandalaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: “Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”¹⁰, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir”, degan fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

7 Qosimov B. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. – Toshkent: Sharq, 2004.

8 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.

9 Yo'ldoshev B. O'zbek pedagogik tafakkuri tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

10 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston madaniyati qator iste'dodli olimlar, sayyohlar, shoirlar, pedagoglar va jurnalistlarni yetishtirib chiqardi. Ular xalqimizning umumiy madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Bu davrda Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim va shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar hamda xalqni ilm-fan va ma'rifatni egallashga undadilar. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek milliy pedagogikasining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida so'z borganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy-badiiy ijodi.

Uning pedagogik faoliyati hamda ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari XX asr boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilik harakatining xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardan hisoblanadi. Abdulla Avloniy asarining "Yaxshi xulqlar" bobida fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr-u hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rijo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, afv kabi tushunchalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. O'z qarashlarini dalillash maqsadida Qur'oni karim oyatlari-dan, hadisi shariflardan namunalar, shuningdek, Aflotun, Arastu, Suqrot, Buqrot, Ibn Sino, Mavlono Rumi, Shayx Sa'diy, Mirzo Bedil kabi ulug' mutafakkirlarning fikrlari keltiriladi.

Jadidchilik harakati namoyandalari G'arbiy Yevropa ma'rifatparvarlari singari ilm-ma'rifat va zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar hamda taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan mutaassib ulamolar va qadimchilarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmazlik kerakki, o'zbek ma'rifatparvarlarining Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihati shundaki, ularning faoliyati zahirida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqloq g'oyasi yotgan edi. Shu sababli jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyalar uchun birday ma'qul bo'lmagan.

Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi sifatida nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo'lamizki, unda ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, g'oyaviy va falsafiy-pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyillarida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar mujassam.

Farzandlar turlicha bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida uni yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham uchraydi. Vatanning ham faqat fusunkor tabiati, bog'-rog'larini hush ko'rib, uning tashvish va g'am-larini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni u qanday bo'lmasin sevisht kerak. "Biz, – deydi Avloniy, – Turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyg'animiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimoslar shimol tomonlarning eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar¹¹. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tirikchilik oson bo'lgan yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz "Qishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", demishlar".

Ulug' alloma Abdulla Avloniy oilada bolalar tarbiyasini barvaqt boshlash lozim, degan mutafakkirlar fikriga qo'shilgan holda, insonning voyaga yetishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydi hamda bu jaryonni azaliy an'analarga tayangan holda amalga oshirish zarur, deb hisoblaydi. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid so'nggi asarlarida ilgari surilgan ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalari, ko'plab nazariy mulohazalari ushbu asarlari sahifalaridan joy olgan bo'lib, ularni mufassal tadbiq etish milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi.

Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, balki davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdur. Bu ish shu darajada muhimki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan chambarchas bog'liq. Avloniy so'zlari bilan aytganda, "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm bo'lib, yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar orqali bayon qiladigan ilm axloq deb ataladi.

Avloniy tarbiyani keng ma'noda tushunadi va uni faqat axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. "Sog' tanda – sog'lom aql" degan hikmatning bejiz emasligini u chuqur angelaydi. Bolaning sog'ligi haqida qayg'urib, bading salomat va quvvatli bo'lishi inson uchun eng zarur narsalardan biri ekanini ta'kidlaydi. Chunki o'qish, o'rganish va o'rgatish uchun insonga kuchli, sog'lom jasad zarur. Avloniyning vijdon haqidagi mulohazalari ham alohida e'tiborga molikdir. U vijdonni ruhimiz va fikrimizga ta'sir qiluvchi, ya'ni sezgi va tuymakdan iborat ma'naviy quvvat sifatida talqin etadi hamda tarbiyaning asl mezonini aynan vijdon ekanini uqtiradi.

¹¹ Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1967.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir millatning o'ziga xos ma'naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy etib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy-badiiy hamda ilmiy asarlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko'p bo'lib, ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Bu jihatdan taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", shuningdek "Birinch muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu risolalar XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida salmoqli o'rin egallagan bo'lib, unda ham nazariy, ham amaliy axloq muammolari falsafiy va pedagogik yondashuv asosida yoritilgan yirik asarlar hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g'oyaviy to'liqligi, ta'lim-tarbiya tizimi va unga oid tushunchalarning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir.

Abdulla Avloniy o'z davrida yosh avlodga chin insoniy axloqiy fazilatlarni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'ygan. U ta'lim va tarbiya, ilm va ma'rifat yo'li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo'lishini orzu qilgan. Abdulla Avloniy fikricha, olamning yaratilishidan maqsad insondir. Inson butun borliqning ko'rki va sharafigidir. U o'z go'zalligi va murakkabligi bilan yer yuzidagi barcha mavjudotlardan ustundir. Butun mavjudod insonga xizmat qilishi lozim, inson esa uning sohibidir. Chunki inson aql sohibidir va aynan shu aql orqali ilm egalaydi, ilm tufayli dunyoni anglaydi va boshqaradi. "Aql, – deydi Avloniy, – insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aql va idroki soyasida o'ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur, yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan ham insonlarning aqlidur".

Abdulla Avloniy asarlar yozish bilan bir qatorda maktablar ochish, xalqni savodxon qilish yo'lida ham ulkan hissa qo'shgan. Jumladan, u 1933-yilda o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun "Adabiyot xrestomatiyasi"ni tuzib, nashr ettirgan. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, adib hamisha el-yurt ravnaqi, Vatan taraqqiyoti, yoshlarning savodli va salohiyatli bo'lib kamol topishi haqida qayg'urgan. U o'zining axloqiy va ta'limiy asarlari bilan o'zbek ma'rifatchiligi tarixida chuqur iz qoldirgan, milliy uyg'onish davri adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Abdulla Avloniy ijodi bugungi kunda ham milliy ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017-yil 4-avgust.
2. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik, "Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish va jadidchilik harakati. – Toshkent: Sharq, 2004.
7. Abdurashidov Z. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 1999.
8. Xolboyev A. O'rta Osiyoda jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
9. Qosimov B. Jadid adabiyoti va milliy tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2006.
10. Abdurashidov Z. Jadidchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari. – Toshkent: Fan, 1999.
11. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. – Toshkent: Sharq, 2004.
12. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
13. Yo'ldoshev B. O'zbek pedagogik tafakkuri tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.